XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 23-may VI-107-45-11-169-K/24 Farg‘ona shahar

Fagʻona shahridagi “Ilgʻor” mahalla fuqarolar yigʻinini negizida yangi mahalla fuqarolar yigʻini tashkil qilish va uning chegaralarini belgilash haqida

Oʻzbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarni nomlari toʻgʻrisida”gi, “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari toʻgʻrisida”gi Qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014- yil 4-martdagi 48-sonli qaroridan kelib chiqib, “Ilgʻor” mahalla fuqarolar yigʻini Kengashining qarori bilan tanishib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining “Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari boʻyicha” doimiy komissiyasining 2024-yil 6-may kungi 5/04-4-sonli yigʻilish bayoni maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarni nomlari toʻgʻrisida”gi Qonuni va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli Qaroriga asosan, “Ilgʻor” mahalla fuqarolar yigʻini negizida Davlat kadastr palatasi Fargʻona shahar filiali tomonidan Fargʻona shahar hokimligiga taqdim etilgan mahallalar hududiy chegaralarini aks ettirgan chizmasi asosida yangi mahalla fuqarolar yigʻini tashkil etilsin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash masalalari boʻyicha komissiyasiga:

- shaharning “Ilgʻor” mahalla fuqarolar yigʻini negizida yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yigʻiniga nom berish masalasini beliglangan tartibda hal etish tavsiya etilsin.

4. Davlat kadastrlar palatasi Fargʻona shahar boʻlimi (F.Eminov)ga:

Fargʻona shaharda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yigʻinidagi turar va noturar obyektlarni kadastr hujjatlariga tegishli oʻzgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Fargʻona shahar hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xoʻjalik, ekologiya va koʻkalamzorlashtirish masalalari boʻyicha oʻrinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi (J.Baxtiyorov);

- shaharning “Ilgʻor” mahalla fuqarolar yigʻini negizida yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yigʻiniga davlat xususiy sherikchilik asosida mahalla fuqarolar yigʻini binosini qurish choralarini koʻrsin.

6. Mahalla fuqarolar yigʻini raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va oʻtkazishga koʻmaklashuvchi shahar komissiyasiga;

- shaharda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yigʻinida fuqarolar yigʻini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va oʻtkazish boʻyicha ishchi guruhi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolar yigʻini raisi (oqsoqoli) saylovi toʻgʻrisida”gi Qonunining 15-moddasida belgilangan vazifalarni oʻz vaqtida va samarali bajarish vazifasi yuklatilsin.

7. Shahar hokimligi Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (Sh.Dehqonov)ga:

- yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yigʻinining shtatlari jadvalini tegishli tartibda shakllantirish vazifasi yuklatilsin.

8. Shahar Statistika boʻlimi (Sh.Tojimatov)ga;

- yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yigʻinining statistik koʻrsatkichlariga belgilangan tartibda zaruriy oʻzgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

9. Fargʻona shahar Davlat xizmatlari markazi (D.Ortiqov);

- yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yigʻinini belgilangan tartibda davlat roʻyxatidan oʻtkazish choralarini koʻrsin.

10. Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyatiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi NAZAROV VOSILJON SHUXRATOVICH